

# Q'ZBEKISTON ZAMINI



Земля Узбекистана

Land of Uzbekistan

ISSN 2181-9955

Ilmiy-amaliy va innovatsion jurnal



QZ

2/2023





# O'ZBEKISTON ZAMINI

## Земля Узбекистана

### Land of Uzbekistan

Ilmiy – amaliy va innovatsion jurnal

2023 yil 2 - son

#### МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

<b>Muassis:</b> <b>O'zbekiston</b> <b>Respublikasi Qishloq</b> <b>xo'jaligi vazirligi</b> <b>“O'zdavyerloyiha”</b> <b>davlat ilmiy-loyihalash</b> <b>instituti</b> <b>Bosh muharrir:</b> <b>Erkin Mengliqulov</b> <b>Tahrir hay'ati:</b> <b>A.B. Voitov</b> <b>(hay'at raisi)</b>  <b>M.I. Ruzmetov</b> <b>B.T. Norqobilov</b> <b>N.J. Bakirov</b> <b>A.X. Abdullayev</b> <b>R.A. Turayev</b> <b>Sh.J. Teshayev</b> <b>G'.T. Parpiyev</b> <b>D. Egamberdiyeva</b> <b>S.A. Avezbayev</b> <b>Sh.M. Bobomurodov</b> <b>L.A. G'afurova</b> <b>T.X. Farmonov</b> <b>N.Y. Abduraxmonov</b> <b>Z.A. Jabborov</b> <b>Małgorzata Suska-</b> <b>Malawska</b> <b>R.R. Suleymonov</b> <b>P. Kováčik</b> <b>A. Sukiasyan</b> <b>V. Rataj</b> <b>R.X. Xo'jaqulov</b> <b>Sh.T. Xoliqulov</b> <b>R. Qurvontoyev</b>	<b>Рамазанова Р.</b> Деградация почв в Казахстане: проблемы и пути решения ..... 6 <b>Аминов Ш.Р.</b> «Распространение эрозии почв в Таджикистане и основные противоэрозионные мероприятия» ..... 15 <b>Намазов Ш.</b> Источники сырья для получения гуминовых удобрений, используемых в борьбе с деградацией земель, их переработка и применение ..... 19 <b>Абдиев А.</b> Состояние почвенного покрова Кыргызской республики ... 23 <b>Червякова С., Зданович Т.</b> Деградация земель в республике Беларусь 31 <b>Мазиров М.А.</b> Длительный полевой опыт тсха: сущность и этапы развития ..... 33 <b>Alisher M.</b> Economics of land degradation in central asia ..... 38 <b>Дурдыев Б., Шадурдыев Г.Т.</b> Цифровая система восстановления деградированных земель в пустынях умеренного пояса Туркменистана ..... 40 <b>Georg Guggenberger., Olga Shibistova.</b> Knowledge-based soil management as a prerequisite to achieve sustainable development goals in central asia ..... 42 <b>Бобомуродов Ш.М.</b> Деградация почв и современные подходы ее предотвращения ..... 44 <b>Нишанов Н.</b> Глобальные и национальные индикаторы факторов и нейтрализации деградации земель ..... 53 <b>Парпиев Г.Т., Рuzметов М.И., Норкулов М.Н., Хаитова К.М.,</b> Современные решения предотвращения деградационных процессов в горных и предгорных пастбищах ..... 61 <b>Кенжи Танака.</b> Эффективность применения японских агротехнологий в Узбекистане и ЦА ..... 63 <b>Norqulov U., Shamsiyev A., Eshonqulov J.</b> Sardoba suv ombori toshqinidan keyingi tuproq tarkibidagi oziqa moddalarining o'zgarishi ... 71 <b>Xujakulov R., Samandarova G., Islomov S.</b> Reliability of hydraulic structures depending on the stress-strain state of soils of loess subsidence bases ..... 75
--	---



U.Norqulov  
 A.S. Shamsiyev  
 A.S. Urolov  
 E.Yu. Safarov  
 D.A. Qodirova  
 M.E. Saidova  
 K.M. Boymirzayev  
 L.Q. Qarshiboyeva  
 O.O'. Davronov  
 B.N. Inamov  
 R.N. Sharopov  
 T.M. Abdullayev  
 J.Z. Usmonov  
 Sh.Sh. Azizov  
 A.Rabbimov

Jurnal 2019 yil aprel  
 oyidan chiqa boshlagan

Bir yilda to'rt marta  
 chop etiladi

Obuna indeksi: 1356

**Manzilimiz:**

**100124, Toshkent Sh.,  
 Mirzo Ulug'bek tumani,  
 Feruza massivi 158B-uy**

**Tel:**

**+99894 647 - 87 - 35**

**+99888 788 - 77 - 84**

**E-mail:**

**uzbekiston\_zamini**

**@umail.uz**

**www.uzzamin.uz**

**www.uzdavyerloyiha.uz**

*Chop etilgan  
 maqola mazmuni  
 va unda keltirilgan  
 ma'lumotlarning  
 to'g'riligiga muallif  
 javob beradi*

O'zbekiston zamini ilmiy-amaliy innovatsion jurnali O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2019 yil 10 yanvarda 1006-raqam bilan ro'yxatga olingan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori bilan quyidagi fanlar bo'yicha dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etiladigan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

- 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
- 03.00.00-Biologiya fanlari
- 05.00.00-Texnika fanlari
- 11.00.00-Geografiya fanlari
- 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
- 18.00.00-Arxitektura fanlari

<i>Farmonov T.X., Nurillayev J.Y. Qorako'chilik xo'jaliklarida yaylovlardan samarali foydalanish tizimini takomillashtirish.....</i>	<b>82</b>
<i>Abduraxmonov N.Yu., Egamberdiyev J.A., Qalandarov N.N. Orol dengizi qurigan qismi qumli-cho'l tuproqlarining xossa-xususiyatlari va hozirgi holati .....</i>	<b>88</b>
<i>Кадирова Д.А., Расулов Х.Н. Мониторинг процессов деградации в пустынно-пастбищных земель с использованием гис технологий ...</i>	<b>93</b>
<i>Xo'jayev Sh.T., Mirzayeva M.A., Nosirova Z.G'. Tut daraxtlarini himoya qilishda samarali vositalar .....</i>	<b>99</b>
<i>G'apurov M. Suvga nisbatan salbiy munosabatning oldini olishda madaniyatning o'rni .....</i>	<b>102</b>
<i>Axunbabayev O.A., Muxamadrasulov Sh.X., Yuldasheva D.B. Mahalliy xomashyodan yangi turdagi yuqori sifatli ko'ylakbop krep gazlamasini ishlab chiqarish texnologiyasini "yodgorlik" MCHJda joriy etish .....</i>	<b>106</b>
<i>Isaqov V.Y., Tadjibayeva L.A. Seliteb landshaftlarda atrof muhitni muhofaza qilish muammolari .....</i>	<b>113</b>
<i>Xodjimatomov A.N., Xolmurodov Sh.A., Boymurotov S.M. Arid mintaqasi agrolandshaftlarining geografik xususiyatlari .....</i>	<b>117</b>
<i>Diyorova M.X., Safarov E.E., Dilmurodov A. Tuproqning texnogen ifloslanishi va uning oqibatlari .....</i>	<b>121</b>
<i>Babajanov A.R., Abdurashidova M.A. Shahar yerlarini xususiylashtirish uchun ularni baholash muammolari .....</i>	<b>124</b>
<i>Abdinazarova X.O. O'zbekiston kimyo sanoati tarmoq va hududiy tarkibi .....</i>	<b>130</b>
<i>Fayzullayev M.A. Suv resurslarining shakllanish manbalari va ularning qishloq xo'jaligida ahamiyati (janubiy O'zbekiston misolida) .....</i>	<b>133</b>
<i>Oymatov R.K., Xamdullayev A.G', Xamdullayeva A.B. Sug'orish tarmoqlarini rekonstruksiya qilish loyihasi uchun elektron xarita ishlab chiqish .....</i>	<b>136</b>
<i>G'ofirov A.J. Kuzgi bug'doyning "Andijon-2" va "Andijon-4" navlarini turli darajada sho'rlangan tuproqlarda ekilganda boshloqning biometrik o'lchamlariga ta'siri .....</i>	<b>142</b>
<i>Zaitov Sh.Sh., Gafurov Z.A., Kattaqulov F.S., Xamdamova G.M. Global iqlim modeli hamda kuzatuv ma'lumotlari yordamida Amudaryo havzasi iqlimini o'rganish va bashoratlash .....</i>	<b>147</b>



**SUG‘ORISH TARMOQLARINI REKONSTRUKSIYA QILISH LOYIHASI UCHUN  
ELEKTRON XARITA ISHLAB CHIQISH**



**R.K. Oymatov**  
T.f.f.d., dotsent



**A.G. Xamdullayev**  
Magistrant



**A.B. Xamdullayeva**  
Magistrant  
O‘ZMU

TIQXMMI MTU

**Annotatsiya.** Butun dunyoda shu jumladan respublikamizda suv tanqisligi muammosi yildan yilga ortib bormoqda. Turli ekologik va antropogen omillar bu jarayonni yanada tezlashtirmoqda. Suv resurslaridan noto‘g‘ri foydalanish, mamlakatimizdagi mavjud suv inshootlari ekspluatatsiya muddati o‘tganligi hamda ta‘mirlanmay kelayotganligi suv tanqisligini ortishidagi asosiy antropogen omillar sifatida qayt etiladi. Mavjud kanal va sug‘orish inshootlari ta‘mir talab holga kelgan. Ularni zamon talabiga mos tarzda rekonstruksiya ishlarini amalga oshirish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir. Rekonstruksiya ishlarini tez va sifatli olib borish uchun obyekt joylashgan hududni topografik syomka qilish ishlari olib borilishi zarur. Shuningdek, syomka natijasida olingan ma‘lumotlar asosida kanallarni joylashgan maydoni, ularning muhofaza mintaqasi belgilash, kanal ta‘mirlash ishlarida qurilish texnikasi harakatlanishi uchun vaqtinchalik yer maydonlarini ajratish hamda ularni elektron raqamli xaritasini yaratish maqsadga muvofiqdir. Ushbu maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasi Beruniy tumani misolida sug‘orish kanallarini rekonstruksiya qilish loyihasi uchun elektron xarita yaratish bo‘yicha bajarilgan ishlar yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** GIS, Elektron xarita, Sug‘orish kanallari, rekonstruksiya, topografik syomka, sug‘orish inshootlari, ortofotoplan, atributiv ma‘lumotlar.

**Разработка электронной карты проекта реконструкции ирригационных сетей**

**Аннотация.** Проблема нехватки воды с каждым годом обостряется во всем мире, в том числе и в нашей республике. Различные экологические и антропогенные факторы ускоряют этот процесс. Неправильное использование водных ресурсов, то, что существующие водные объекты в нашей стране устарели и не ремонтируются, являются основными антропогенными факторами, увеличивающими дефицит воды. Существующие каналы и ирригационные сооружения нуждаются в ремонте. Реконструкция их в соответствии с требованиями времени является одним из актуальных вопросов современности. Для того, чтобы провести работы по реконструкции быстро и качественно, необходимо провести топографическую съемку местности, где находится объект. Также на основе данных, полученных в результате изысканий, желательно определить расположение каналов, их охранную зону, выделить временные земельные участки для движения строительной техники при проведении ремонтных работ на каналах, создать электронную цифровую карту. из них. В данной статье описывается проделанная работа по созданию электронной карты для проекта реконструкции оросительных каналов на примере Берунийского района Республики Каракалпакстан.

**Ключевые слова:** ГИС, Электронная карта, Оросительные каналы, реконструкция, топографическая карта, ирригационные сооружения, ортофотоплан, атрибутивные данные.



### **Development of an electronic map of the irrigation network reconstruction project**

**Annotation.** The problem of water shortage is increasing year by year all over the world, including in our republic. Various environmental and anthropogenic factors accelerate this process. Improper use of water resources, the fact that existing water facilities in our country have expired and are not being repaired are the main anthropogenic factors that increase the water shortage. The existing canal and irrigation facilities are in need of repair. Reconstruction of them in accordance with the requirements of the times is one of the urgent issues of today. In order to carry out the reconstruction works quickly and qualitatively, it is necessary to carry out topographical surveying of the area where the object is located. Also, based on the data obtained as a result of surveying, it is desirable to determine the location of canals, their protection zone, to allocate temporary land areas for the movement of construction equipment during canal repair works, and to create an electronic digital map of them. This article describes the work done on the creation of an electronic map for the project of reconstruction of irrigation canals on the example of Beruni district of the Republic of Karakalpakstan.

**Key words:** GIS, Electronic map, Irrigation channels, reconstruction, topographic map, irrigation facilities, orthophoto plan, attributive data.

**Kirish.** Bugungi kunda butun dunyo suv bilan bog'liq muammolar ortib bormoqda, bunda iqlim o'zgarishi asosiy ta'sirni o'tkazmoqda. Global iqlim o'zgarishi ortidan barcha sohalarga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmayapti, shu bilan birga qishloq xo'jaligi yerlarni suv bilan ta'minlash masalalarida ancha qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. Respublikamizda qishloq xo'jaligida foydalaniladigan suvlarning kamayishi ortidan sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlarning kamayishiga yoki yer toifasini o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Buning ortidan oziq ovqat mahsulotlarini yetishmovchiligiga olib kelishi mumkin.

**Tadqiqot obyekti va uslublari.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yildagi 24-martdagi PQ-2324-son qaroriga asosan Sug'oriladigan yerlarda qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishni ta'minlash, Janubiy Qoraqalpog'istonda suv va yer resurslaridan samarali foydalanishni oshirish, shuningdek, Jahon banki bilan hamkorlikni kengaytirish aytib o'tilgan. Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yildagi 11-dekabrda 981-son qaroriga asosan "Janubiy Qoraqalpog'istonda suv resurslarini boshqarishni yaxshilash" loyihasini amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi va Xalqaro taraqqiyot uyushmasi (XTU) o'rtasida 2014-yil 29-oktabrda 156,9 mln MQOH (242,5 mln AQSh dollari ekvivalentida) miqdorida kredit berishni nazarda tutuvchi Moliyalashtirish to'g'risidagi bitim hamda O'zbekiston Respublikasi va Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB) o'rtasida 25 yil muddatga, shu jumladan 5 yillik imtiyozli davr bilan 18,29 mln AQSh dollari miqdorida qarz berish bo'yicha Qarz bitimi imzolangan [1].

Loyihaning umumiy qiymati 376,71 mln AQSh dollarini tashkil etishi, shu jumladan loyihani amalga oshirishdagi O'zbekiston Respublikasining hissasi 115,92 mln AQSh dollari ekvivalentida tashkil etishi, shundan 50,05 mln AQSh dollari - soliq va bojxona imtiyozlarini taqdim etilishi ko'rinishida ekanligi ma'lumot berib o'tilgan [1].

O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vaziri va Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi zimmasiga loyiha chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun lozim bo'lgan sharoitlarni ta'minlash, shuningdek, Jahon banki tartib-taomillari va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablariga muvofiq zarur hisobot va hujjatlarni o'z vaqtida tayyorlash va taqdim etishni tashkil etish yuzasidan shaxsiy javobgarlik yuklatilgan [1].

Yuqoridagi qarorlarga muvofiq kanallar, sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlarining suvni muhofaza qilish zonalarini hamda sohil bo'yi mintaqalarini quyidagicha bo'lishi belgilangan:

- suv o'tkazish qobiliyati sekundiga 50 dan 100 m<sup>3</sup> gacha bo'lgan kanallar uchun - 50 -70 metr;
- suv o'tkazish qobiliyati sekundiga 100 dan 150 m<sup>3</sup> gacha kanallar uchun - 70 -100 metr;
- suv o'tkazish qobiliyati sekundiga 150 m<sup>3</sup> dan ortiq bo'lgan kanallar uchun - 100 -150 metr [2].

**Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi.** Sug'orish kanallarini geoma'lumot bazasini yaratish uchun birinchi navbatda sug'orish kanallari joylashgan hududini o'rganish talab etiladi. Hududning mavjud elektron xaritalari yoki JPG xaritalar orqali hududning geografik joylashuvi haqida ma'lumotlari yig'ildi va kerakli






1-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy tumani "Qiyatob" massivi

ma'lumotlarni o'rganish ishlari olib borildi.

Suv resurslaridan bo'limidan tuman hududida mavjud kanallar ro'yxati bilan tanishib chiqamiz. Bu jadvalda kanallarning qurilgan yili, kanallarni tumondagi sug'oriladigan yerlarni qamrov darajasini ko'rishimiz mumkin bunda har bir kanal qancha paxta, bug'doy va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlarni sug'rish maydonlarni hamda suv oqib o'tadigan suv miqdori foydali ish koeffitsienti (FIK %) h.k keltirilgan (1-jadval).

Bundan tashqari sug'orish kanallarining bugungi kungacha necha yillar bo'lganligi ularni rekonstruksiya qilish darajasiga qanchalik yaqinligi, haqida ma'lumot olishimiz mumkin. Kanallarni tamirlash loyhasi uchun kanallarni atrofini o'rganib topografik syomka qilish talab etiladi. Har bir kanallarani joylashgan joyi va ularning muhofaza mintaqalarini belgilash ishlarida toposyomka ishlari olib boriladi.

Syomka jarayoning birinchi nuqtasini PK0 deb belgilab olamiz va keyingi nuqtani PK1 deb belgilab olamiz, PK lar orasida obyekt joylashgan bo'lsa uni birinchi nuqtaga nisbatan PK0+15, PK0+35, PK1+30 .... kabi belgilab ketamiz kanalining yo'nalishiga qarab PK lar o'rnatiladi. Agar kanal joylashgan yerning relyefi



2-rasm. Syomka natijalari asosida yaratilgan Ruzim-yab kanali sxemasi

1-jadval. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Beruniy tumani hududida mavjud kanallar ro‘yxati

№	Kanal nomi	Jami uzunligi km	Loyihaviy ko‘rsatkichlari			tuproq o‘zanli	Bog‘langan maydoni, ga	shundan			Jami gidrotexnik inshootlar soni, dona	jami oqib o‘tgan suv miqdori mln.m <sup>3</sup>
			qurilgan yili	suv o‘tkazish qobiliyati m <sup>3</sup> / sek	FIK %			paxta	g‘alla	boshqa ekinlar		
1	Kattagar	30,0	1950	8,0	0,64	30,	3068,5	1319,0	402,5	1347,0	48	56,15
2	Sauxum yargan	18,2	1958	5,0	0,67	18,2	2241,6	876,0	501,5	864,1	42	41,02
3	Kazax-yap	8,1	1947	5,0	0,71	8,1	3793,6	1130,0	55,5	2608,1	10	69,42
4	Beshtam	21,2	1936	6,0	0,68	21,2	3297,6	1031,0	296,5	1970,1	54	60,35
5	Nayman	24,0	1945	18,0	0,7	24,	3737,5	1493,0	360,5	1884,0	63	68,40
6	Mexnat	2,5	1950	2,0	0,64	2,5	120,6	15,0	23,5	82,1	3	2,21
7	Karvan- salma-1	3,8	1950	2,0	0,67	3,8	139,6	41,0	35,5	63,1	3	2,55
8	Otvodyashiy	7,0	1970	25,0	0,71	7,0	529,6	212,0	102,5	215,1	7	12,23
9	Jagalbayli	14,0	2002	6,0	0,68	14,0	525,6	201,0	151,5	173,1	16	9,62
10	Kumsalma-2	12,0	1988	5,0	0,7	12,0	360,6	137,0	65,5	158,1	13	6,60
11	Karvansalma-2	2,7	2002	1,5	0,62	2,7	239,6	61,0	34,5	144,1	2	4,38
12	Podv Nayman s-k	3,4	1999	12,0	0,62	3,4					5	6,80
13	Boz-yap (Beruniy)	65,0	1939	25,0	0,62	65,0	3995,6	834,0	398,5	2763,1	71	103,02
14	Xaytbayarna	30,0	1948	6,0	0,62	30,0	2500,5	713,0	191,5	1596,0	36	45,76
15	Shabboz	14,6	1939	5,0	0,62	14,6	983,6	402,0	144,5	437,1	38	18,00
16	Aksakal acha	9,4	1939	3,0	0,62	9,4	961,6	326,0	144,5	491,1	19	17,60
17	Pod kanal новыу	6,0	2000	32,0	0,62	6,0					3	3,20
18	Navoiy	14,6	1939	8,0	0,62	14,6	3686,7	682,0	169,5	2835,2	22	37,38
19	Eshan-yap	9,6	1950	2,5	0,62	9,6	1172,6	152,0	63,5	957,1	16	11,36
20	Erimbetgetgen	11,9	1955	5,0	0,64	11,9	838,6	326,0	59,5	453,1	14	15,35
21	Kumsalama-1	9,0	1950	4,0	0,64	9,0	666,6	250,0	84,5	332,1	19	12,20
22	Turangil-acha	6,2	2002	1,5	0,65	6,2	244,6	74,0	64,5	106,1	8	4,48
23	GYuKK ustidan										3	
<b>Jami</b>		<b>323,2</b>	<b>-</b>	<b>187,5</b>	<b>14,3</b>	<b>323,2</b>	<b>33104,1</b>	<b>10275,0</b>	<b>3350,0</b>	<b>19479,1</b>	<b>515,0</b>	<b>608,1</b>



murakkab bo'lsa shu yo'nalishda har 100 m va undan katta o'lchamda nuqtalar olinadi va obyektning sxemasi yaratildi (2-rasm).

Syomka ishlari kanalning hozirdagi uzunligini aniqlash, dengiz sathidan balandligi va kanalning sug'oriladigan yerlar bilan nisbatini, kanalning muhofaza mintaqasini belgilash, suv oqib o'tuvchi o'zani aniqlash, doimiy kuzatib turish uchun ikki qirg'oqdan kuzatuv dala yo'lini hamda tamirlash ishlari uchun texnika harakatlanishi uchun vaqtinchalika yer ajratish ishlari uchun olib boriladi.

Syomka ishlari natijasida olingan ma'lumotlar ArcGIS dasturida qayta ishlanadi. Hududning ortofotoplani orqali joydagi o'zgarishlarni xaritaga tushirib chiqamiz (3-rasm).

Mavjud bo'lmagan qatlamlarni ArcGIS Catalog dasturi yordamida o'zimizga kerakli \*.gdb formatdagi ma'lumotlar bazasini yaratib olamiz. Ushbu formatga ma'lumotlar bozasini o'zimiz uchun zarur bo'lgan qatlamlarni yaratib olamiz. Sug'orish kanallari joylashgan yerlarni xatlovdandan o'tkazish ishlari olib boriladi. Buning natijasida bizda obyekt joylashgan hudud haqida dastlabki ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Xatlov natijasida kanallarning muhofaza mintaqasigan tushgan obyektlar haqida ularning maydani haqida ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Buning natijasida



3-rasm. Tamirlanayotgan kanal loyihasi

sug'orish kanallarining 1:10 000 masshtabdagi kartasi tayyor bo'ladi. Yangi loyihaga joyda mavjud o'zgarishlar qayd etildi.

Sug'orish kanallari joylashgan yerlarni xatlovdan o'tkazish ishlari olib boriladi. Buning natijasida bizda obyekt joylashgan hudud haqida dastlabki ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Xatlov natijasida kanallarning muhofaza mintaqasigan tushgan obyektlar haqida ularning maydani haqida ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Sug'orish kanallarini rekonstruksiya qilish ishlarida kanallarning atrofida joylashgan aholining qurgan uylar, do'konlar molxonalar, mevali daraxtlari va boshqa obyektlar kanal muhofaza zonasida joylashgan bo'lsa bu rekonstruksiya ishlarini olib borayotgan texnikaga bir muncha noqulayliklar olib keladi buning ortidan ushbu obyektlarni buzushga tug'ri keladi. Ushbu

Ellikqal'a tumani Amirabod OFY hududida Kalacha kanali qurilish ishlari uchun muddati (vaqtincha) qurilish davri uchun ajratilayotgan yer maydon ichiga tushayotgan malxona (ob'ekt yoki yer uchastkasi)ning chegaralarini aniqlash

**DALOLATNOMA**

Ixlos OFY (MFY) 2022 yil "27" aprel

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 martdagi "Janubiy Qoraqalpog'istonda suv resurslarini boshqarishni yaxshilash" loyihasi jahon banki ishtirokida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2324-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Ellikqal'a tumani hokimining 9.02.2022 yildagi 12-13-194-F/22-sonli farmoyishiga asosan tuzilgan quyidagi ishchi komissiyasi a'zolari

Ixlos OFY (MFY) raisi A. Aytbayev  
 Davlat kadastrlari palatasining tuman filiali mutaxassisi M. Qurambayev  
U. Bekchanov tuman irrigatsiya tizimi mas'ul xodimi  
A. Aytbayev tuman EAMMQ soxasidagi nazorat inspektori  
M. Bozronov "O'zdavyerloyiha" instituti bo'lim vakili  
 Ko'chmas mulk egasi A. Aytbayev M. Muzaddin

lar ishtirokida quyidagilarni aniqladik:

Ixlos OFY (MFY) hududida joylashgan yer uchastkasining kadastr raqami 23.12.03.04.08.0231

A. Aytbayev M. Muzaddin (yuridik shaxsning nomi yoki jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi)

1. Yer uchastkasi berilgan yoki unga bo'lgan huquqning o'tishi to'g'risida ma'lumot

(tuman hokimi qarori, oldi-

sotdi shartnoma va boshqalar, sanasi, raqami).

Hujjatga ko'ra yer uchastkasiga

2. Hujjatga ko'ra yer uchastkasi — m<sup>2</sup>, —

huquqi bilan berilgan.

3. Amalda egallangan yer uchastkasining maydoni — m<sup>2</sup>

- shundan qurilish osti maydoni — m<sup>2</sup> ni tashkil qiladi.

4. Shu jumladan Kalacha kanalning ta'sir doirasiga

tushgan yer uchastkasi 2 m<sup>2</sup>, malxona maqsadida

foydalanmoqda, shundan 2 m<sup>2</sup> ni qurilish ostidagi,

— m<sup>2</sup> ni tomorqa yer maydoni, — m<sup>2</sup> ni hovli maydoni, — m<sup>2</sup> ni ko'p yillik daraxtzorlar tashkil etadi.

5. Yer uchastkasidan malxona maqsadida foydalanilmoqda.

6. Qurilish ishlari qilinayotgan Kalacha kanal ta'sir doirasiga tushayotgan yer uchastkasi va ob'ekt (ta'rif, qonuniyligi)

Osta holatda

Boshqa qo'shimcha ma'lumotlar

2

Ushbu dalolatnomani to'g'ri deb imzo qo'yuvchilar

OFY (MFY) raisi A. Aytbayev (F.I.Sh.)  
 Davlat kadastrlari palatasining mutaxassisi M. Qurambayev (F.I.Sh.)  
 Tuman irrigatsiya tizimi mas'ul xodimi U. Bekchanov (F.I.Sh.)  
 Tuman EAMMQ soxasidagi nazorat inspektori A. Aytbayev (F.I.Sh.)  
 "O'zdavyerloyiha" instituti bo'lim vakili M. Bozronov (F.I.Sh.)  
 Ko'chmas mulk egasi: A. Aytbayev (F.I.Sh.)


(93) 774-51-52  
 (94) 904-26-80

4-rasm. Sug'orish kanallarini tamirlashda ajratilgan mintaqadagi obyektlarni o'rganish yuzasidan tuzilgan dalolatnoma



muommoli vaziyatni yechish uchun quydagicha dalolatnoma tuzish ishlarini bajarish maqsadga muvofiq (4-rasm).

Dalolatnomada kanal tamirlanishi uchun ajratilayotgan hududga tushgan obyekt maydoni, mavjud kadastr ma'lumotlari hamda qiymati haqida ma'lumotlar qayd etiladi. Dalolatnoma Tumandagi kadastr, suv resurslari bo'limi xodimlari va mahalliy hokimiyat vakillari tomonidan tuzilgan



5-rasm. Sug'orish kanallari geoaxborot bazasi

Obyektlarning atributiv ma'lumotlar kiritildi. Yaratilgan ma'lumotlar bazasi yordamida elektron xaritalar yaratildi (5-rasm).


#### Xulosa, taklif va tavsiyalar.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy tumanida sug'orish kanallarini rekonstruksiya qilishda suv resurslarini tejash, suv resurslarining ifloslanishi kamaytirish, bulg'anishi va tanqisligining oldini olish, suv obyektlaridan samarali foydalanish va suv resurslarini oqilona boshqarish uchun muhim omillardan biri hisoblanadi. Sug'orish kanalining tamirlash maqsadida kanallarning muhofaza mintaqalarini belgilash hamda kanallarni ta'mirlash uchun hududning elektron xaritasini tuzish muhim vazifa hisoblanadi. Olib borilgan ish davomida quydagi natijalarga erishildi:

1. Sug'orish kanallari egalagan maydoni va uzunligini aniqlanadi.
2. Joylarda yerdan foydalanuvchiga tegishli

kamissiya a'zolari o'rganishi asosida tasdiqlanadi. Dalolatnomaga asosan obyekt egasi roziligi bilan kompensatsiya mablag'lari ajratiladi va ushbu yerdan kanal tamirlash ishlarini olib borishda foydalaniladi.

Xatlov natijarari asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy tumanida sug'orish kanallari va ularning muhofaza mintaqasida joylashgan barcha obyektlarining geoaxborot bazasi yaratildi.



bo'lgan ma'lumotlar asosida geoma'lumotlar bazasiga yaratildi

3. Ma'lumotlarni qatlamlar kesimida tahlil qilinadi.
4. Qatlamlarga tegishli atributiv ma'lumotlarni integrasiya qilinadi.
5. Elektron raqamli kartalarning holati va ma'lumotlarini davriy yangilab borish imkoniyati yaratildi.

Tadqiqot davomida sug'orish tarmoqlarini rekonstruksiya qilish loyihasi uchun elektron xarita ishlab chiqishni orqali yurtimizdagi ta'mir talab ahvolga kelgan sug'orish kanallarini tamirlash ishlarini tez amalga oshirish imkonin beradi. Natijasida qishloq xo'jaligi yerlarini sug'orish uchun zarur bo'lgan suvdan oqilona foydalanilgan holda ortiqcha suv yo'qotishlari oldi olinishiga erishiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yildagi 24-martdagi PQ-2324-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yildagi 11-dekabrda 981-son qarori del: insights from one decade of application, 2013.